



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buguk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 12-mart, № 50 (8945)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## O'ZBEKISTON PREZIDENTINING FRANSIYAGA DAVLAT TASHRIFI BOSH LANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Parij shahriga keldi.

Samolyot oldida O'zbekiston yetakchisini Fransiya milliy ta'lim, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar vaziri Elizabet Born, Parij harbiy okrugi qo'mondoni general Loik Mizon va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi. "Oril" xalqaro aeroportida oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat

bayroqlari ko'tarildi, faxriy qorovul saf tordidi. Mamlakatimiz delegatsiyasi joylashgan qarorgoh oldida Fransiyada o'qiyotgan, ishlayotgan va ilmiy izlanishlar olib borayotgan bir guruh vatandoshlarimiz Prezident Shavkat Mirziyoyevni katta xursandchilik bilan kutib oldi. Davlatimiz

rahbari ular bilan samimiy suhbatlashdi, o'qish va izlanishlariga muvaffaqiyat tiladi. Tashrifning asosiy tadbirlari 12 mart kuniga mo'ljallangan. Dasturga muvofiq, Yelisey saroyida oliy darajadagi O'zbekiston – Fransiya muzokaralari bo'lib o'tadi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari UNESCO bosh direktori Odri Azule bilan uchrashuv hamda Fransiyanning yetakchi kompaniya va banklari vakillari bilan davra suhbatini o'tkazadi.

O'ZA.

## O'ZBEKISTON PREZIDENTI BAA PREZIDENTI BILAN TELEFON ORQALI MULOQOT QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11 mart kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotda Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonni tavallud kuni bilan samimiy tabrikladi.

Mamlakatimiz yetakchisi BAA Prezidentiga mustahkam sog'liq va farovonlik, davlatchilik faoliyatida katta muvaffaqiyatlar, do'st Amirliklar xalqiga tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi. Davlat rahbarlari butun musulmon ummati uchun muqaddas bo'lgan Ramazon oyini munosabati bilan ham bir-birlarini samimiy quttadilar.

O'zbekiston Prezidentining joriy yil yanvar oyida BAAga amalga oshirgan tashrifi ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi sahifa ochib, ularni strategik sheriklik darajasiga ko'targani alohida ta'kidlandi. Erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish uchun alohida «Yo'l xaritasi» qabul qilindi.

Yetakchilar O'zbekiston bilan BAA o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik, eng

avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarida jadal rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar. Tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi, qo'shma korxonalar soni izchil ortib bormoqda.

Bugungi kunda 20 milliard dollarlik loyihalar portfeli doirasida Amirliklarning yetakchi kompaniyalari bilan "yashil" energetika, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, shaharsozlik va infratuzilma, turizm, xususiy biznes kabi muhim yo'nalishlarda faol hamkorlik qilinmoqda.

Samarqand shahrida «Markaziy Osiyo – Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi» muloqotining ikkinchi sammitini o'tkazish masalalari ham ko'rib chiqildi.

O'ZA.

## O'zbekiston – Fransiya:

# UMUMIY TARAQQIYOTGA ERISHISH YO'LIDAGI SHERIKLIK

Fransiya rivojlangan industrial-agrar mamlakat bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Iqtisodiy salohiyatiga ko'ra dunyoning eng rivojlangan yetti davlati qatoriga kiradi. Shuningdek, u yadroviy davlat hamda BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy besh a'zosi birligida, Yevropa Ittifoqi hamda xalqaro maydonda muhim rol o'ynaydi.

### Biz va jahon

Fransiya O'zbekiston mustaqilligini 1992 yil 3 yanvarda tan olgan va mamlakatlarimiz o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yil 1 martda o'rnatilgan. 1993 yil 27 oktabrda "Do'stlik va hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma imzolaniishi bilan munosabatlarning keyingi dinamikasi mustahkamlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning

2018 yil oktabr va 2022 yil noyabr oylarida Fransiya rasmiy tashrifi, shuningdek, Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning 2023 yil noyabr oyida mamlakatimizga tashrifi barcha sohada siyosiy muloqot va hamkorlikni izchil rivojlantirishga yangi sur'at qo'shdi. Davlatimiz rahbarining 2022 yil noyabr oyida Parijga tashrifi

chog'ida ikki davlat rahbarlari yuqori darajadagi har tomonlama sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga kelishib olgan edi.

O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasidagi idoralarda darajadagi hamkorlik keng yo'nalishlarni qamrab oladi. 2023 yil 2 noyabr kuni Samarqand shahrida ikki davlat rahbarlari ishtirokida ta'lim, madaniy meros va ichimlik suvi ta'minoti infratuzilmasini yaxshilash sohalariga oid bir qator kelishuvlar imzolandi. Bundan tashqari, munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga ko'tarish niyati e'lon qilinib, "yashil" energiya, xomashyo qazib olish va qayta ishlash, innovatsion qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, logistika, infratuzilmani rivojlantirish va turizm sohalarida yangi yirik loyihalarni ilgari surish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Parlamentlararo hamkorlik, delegatsiyalar almashinuvi, ikki mamlakat parlamentlaridagi do'stlik guruhlari faoliyati, parlamentlararo birlashmalar va ko'p tomonlama parlament tuzilmalari tomonidan uyushtirilayotgan xalqaro tadbirlarda qatnashish orqali izchil rivojlanmoqda. O'zbekiston va Fransiya parlamentariylarining o'zaro hamkorligi tajriba almashish, global va mintaqaviy muammolarni muhokama etish, shuningdek, ko'p tomonlama darajadagi sheriklikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston va Fransiya Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida muntazam ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazilmoqda, uning o'n beshinchi davrasi 2024 yil 27 may kuni bo'lib o'tdi. Unda ikki davlat

diplomatlari O'zbekiston – Fransiya munosabatlarining bugungi holati, oliy darajadagi o'zaro tashriflar chog'ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, shuningdek, hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasini kengaytirish masalalarini muhokama qildi. Xalqaro va mintaqaviy muammolar, shuningdek, turli darajadagi bo'lajak qo'shma tadbirlar jadvali hamda kun tartibi yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston va Fransiya BMT, YXHT kabi xalqaro tuzilma hamda tashkilotlar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Har ikki tomon global va mintaqaviy darajada xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shish istagini yana bir bor tasdiqlaydi.



### Senat qo'mitasida

## UCH OY SARHISOBI



O'tgan qisqa davr mobaynida Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi o'z faoliyatida soha uchun muhim bo'lgan tegishli qonunlar o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida mutasaddi vazirlik, idora va jamoat tashkilotlari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, qo'mita huzuridagi ekspertlar guruhi vakillari ishtirokida dastlabki tarzda ko'rib chiqildi hamda ularning fikr-mulohazalari olindi.

Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidan Senatga ma'qullash uchun kiritilgan qo'mita yo'nalishiga taalluqli bo'lgan 9 ta O'zbekiston Respublikasi qonuni Senat yalpi majlislariga olib chiqildi va qizg'in muhokama qilinib, 8 tasi ma'qullandi, 1 tasi konseptual e'tirozlar mavjudligi bois rad etildi. Davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining qonunlariga rioya etishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, davlat dasturi, Senat va uning Kengashi qarorlarining ijro etilishi holati, shuningdek, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholi turmush farovonligini oshirish, ularning bandligini ta'minlash kabi qator masalalar yuzasidan qonun hujjatlarining ijrosi qo'mita a'zolari tomonidan joylarga chiqib o'rganildi va

tegishli xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari ishtirokida muhokama qilindi.

Jumladan, Andijon, Jizzax, Namangan hamda Xorazm viloyatlarida agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish, investitsiyalarni faol jalb etish, eksportni qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar holati o'rganilib, tegishli vazirlik va idoralarning axboroti eshitildi.

Bundan tashqari, qo'mita tomonidan "2025 yil uchun Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mutasaddi vazirlik, idora va jamoat tashkilotlari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari hamda qo'mita huzuridagi ekspertlar guruhi vakillari ishtirokida dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.



### Fraksiyalar hayoti

## BELGILANGAN VAZIFA VA ANIQ MAQSADLAR

yangichayondashuv asosida ishlash kerakligini taqozo etadi

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda dastlab Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, fraksiyalar oldida turgan ustuvor yo'nalishlar atroflicha muhokama qilindi. Shuningdek, quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ham atroflicha ko'rib chiqildi.



### Shaffoflik va samaradorlik – muhim omil

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari Prezidentimiz tomonidan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida sohada amalga oshirilgan islohotlar, ularning natijalari tahlil qilingan holda, davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb masalalar, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari bo'yicha ko'rsatmalar berilganini aytishdi.

O'ZLiDeP va uning fraksiyasi ilgari surilgan vazifalardan kelib chiqib, korruptsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha barcha chorani ko'rishi ma'lum qilindi.

Yig'ilishda "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi yanada takomillashtirilgani munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.



## JAMIYATIMIZ ISTIQBOLI YANADA YORQIN BO'LADI

Keyingi yillarda mamlakatimiz milliy qonunchilikni takomillashtirilib, ayollar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratilayotgani va bu ularning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligi oshishiga sabab bo'lmoqda. Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, so'nggi 7-8 yil davomida birgina boshqaruv sohasida ayollarimizning ulushi sezilarli darajada oshdi.

### Munosabat

Xususan, 2017 yilda boshqaruv sohasida xotinqizlar o'rtacha 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 35 foizga yetdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga yangidan saylangan deputatlar salmog'i 32 foizdan 38 foizga, Senat a'zolarining ulushi esa 27 foizga yetishi O'zbekiston tarixida eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Ayollarning davlat boshqaruvi va parlament faoliyatidagi ishtirokining

kuchaygani jamiyat rivojiga ham ijobiy ta'sir etayotganidan dalolat beradi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida xotinqizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



## MUQOBIL ENERGETIKA — OLAMSHUMUL MASALA



Sayyoramizda aholi sonining tobora oshib borayotgani va iqtisodiy taraqqiyot yo'lida energiyadan foydalanish keskin ortayotganini hisobga olsak, mavjud energotizimlar yaqin kelajakda ehtiyojni umuman ta'minlab bera olmasligi aniq. BMT tomonidan ilgari surilgan energoqorsurslar bo'yicha global tashabbus 2030 yilga borib zamonaviy energetik xizmatlardan ommaviy foydalanishni ta'minlash, dunyo energoiste'molini 40 foizga pasaytirib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 30 foizga oshirish kabi uchta asosiy maqsadga erishishga mo'ljallangan.

### Mulohaza

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 675 million kishi umuman elektr energiyasi tarmog'iga ulanish imkoniga ega emas (ularning 80 foizi Afrika mamlakatlarida yashaydi). Mutaxassislarining qayd etishicha, qayta tiklanuvchi manbalar – suv, quyosh, shamol energiyasidan yoppasiga foydalanish va bu orqali butun Yer yuzi aholisini arzon elektr energiyasi bilan ta'minlash mumkin.

Ta'kidlash joizki, hozirgi paytda ko'pgina mamlakatlar o'z oldiga quyosh, shamol, suv energiyasi kabi

qayta tiklanuvchi manbalardan kengroq foydalanishni maqsad qilib qo'ygan. Bu iqtisodiy taraqqiyot barqarorligi va energiya xavfsizligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlash nuqtai nazaridan elektr energiyasi olishning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Shunga qaramasdan, bugungi kunda global karbonat angidrid tashlamalarining salkam 90 foizi ko'mir, neft va gaz hissasiga to'g'ri keladi. Qazilma yoqilg'ilar hali ham dunyodagi elektr energiyasi ishlab chiqarishda ustunlik qilmoqda. Muhimi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari allaqachon sayyoramiz bo'ylab elektr energiyasining qariyb 29 foizini ta'minlab beryapti.



### Da'vat

## TAMA QILGAN KIMSA YETMAS MURODGA

Eshit, og'a-ini, do'stu birodar, Millat – haq ko'ngildir, o'ziga bekdar. Bu so'zlarni uqsang, mag'zini chaqsang, Bilgil, korruptsiya yomon illatdir.

Kimlarning yo'lga tuzoq qurgan ul, Har vaqt o'z foydasin poylab turgan ul, Ne-ne "men" deganni yo'ldan urgan ul, Bilgil, korruptsiya yomon illatdir.

Dunyo mulki kabi kulib boqadir, Makkor juvon kabi qoshin qoqadir, Bir kun or-nomusing o'tda yoqadir, Bilgil, korruptsiya yomon illatdir.

Bir kun orzu-havas ustun kelganda, Marvaridu zarni ko'zing ko'rganda, Tortib tuzog'iga aylagay banda, Bilgil, korruptsiya yomon illatdir.

Muhtasham saroylar, billur qandillar, Ko'ngil ne tilamas, yonadi dillar, Qopqoniga tushsang, gung bo'lar tillar, Bilgil, korruptsiya yomon illatdir.

Halol ota-onang, niyat haq edi, Do'st, qadrdon sendan ko'ngli to'q edi, Magar ul qiz buni kutgan yo'q edi, Bilgil, korruptsiya yomon illatdir.

Bo'lib oqibati qo'lga tusharlar, Qo'lga tushsa o'tda yonib, pisharlar, Odil qozi og'ir jazo berarlar, Bilgil, korruptsiya yomon illatdir.

Derlarki, quyovni qamish o'ldirar, Jasur azamatni nomus o'ldirar, Boshim egilmasin desang sen agar, Bilgil, korruptsiya yomon illatdir.

Qabul et "halollik vaksinasi"dan, To'g'riqlik yo'ldoshing bo'lgaydir mudom, Hatto yaqin o'tma uning yonidan, Bilgil, korruptsiya yomon illatdir.

Ko'chada ich halol bo'lsa gar oshing, Shaffof ishbiarmon kulsin, yashnasin, Ota-onang nolib, egmasin boshin, Bilgil, korruptsiya yomon illatdir.

Halollikka da'vat etdi Yurtboshi, Charog'on bo'lsin deb dillar quyoshi, Poklik – bu millatning chin tamal toshi, Bilgil, korruptsiya yomon illatdir.

Tama qilgan kimsa yetmas murodga, Oqibat qolgaydir ul yomon otga, Do'stim, bu pandimni tut doim yodda, Bilgil, korruptsiya yomon illatdir.

Kenesboy KARIMOV, O'zbekiston xalq yozuvchisi, Qoraqalpog'iston xalq shoiri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputati.

O'zbekiston – Fransiya:

UMUMIY TARAQQIYOTGA ERISHISH YO'LIDAGI SHERIKLIK

Fransiya O'zbekistonning Markaziy Osiyoda ishonchni mustahkamlash, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish, shuningdek, Yevropa Ittifoqi bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik o'rtasidagi yangi bitimni tezroq imzolash borasidagi sa'y-harakatlarini yanada qo'llab-quvvatlashga tayyor.

kompaniyalarining 60 nafar rahbari ishtirokida o'tkazilgan O'zbekiston – Fransiya hamda "MEDEF Internasional" tadbirkorlik harakati bilan ikki tomonlama biznes forumlari, ular natijasida imzolangan kelishuvlar ishbiarmonlik hamkorligini kengaytirishdan o'zaro manfaatdorlik yuqori ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Beruniy. Geografik va intellektual sayohatlar" mavzuidagi ko'rgazma ham yevropaliklarning e'tiborini tortdi va O'zbekistonning ilmiy merosini yana bir karra keng targ'ib qilish imkonini berdi.

Ta'lim va fan sohasida, ayniqsa, O'zbekiston ta'lim muassasalarida fransuz tili va adabiyotini o'rganish borasida hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Ayni paytda yurtimizdagi 602 ta maktabda

markazi, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab Fransiya fuqaro aviatsiyasi milliy maktabi bilan hamkorlikda fuqaro aviatsiyasi uchuvchilarini tayyorlash maktabi faoliyat yuritmoqda.

2023 yil noyabr oyida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning O'zbekistonga tashrifi doirasida Samarqand shahrida "Fransiya alyansi"ning ikkinchi filiali ochildi. O'z navbatida, Sorbonna

o'rtasidagi do'stona munosabatlar timsoliga aylangan Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va Abu Rayhon Beruniy haykallari o'rnatildi va "O'zbek bog'lari" barpo etildi.

Ilmiy hamkorlik haqida so'z borganda, Temuriylar davri san'ati va tarixini o'rganish assotsiatsiyasi hamda "Avitsenna-Fransiya" uyushmasining Fransiya davlati faoliyatini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Bu uyushmalar O'zbekiston madaniy va ilmiy merosini o'rganish hamda uni Fransiya jamoatchiligi orasida keng targ'ib qilishga katta hissa qo'shayotir.


Sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlik ham izchil kengaymoqda. 2022 yil mart oyida O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi Parij markaziy shifoxonalari tarmog'i – "AP-HP" bilan shoshilinch tibbiy yordam, pediatriya, ginekologiya, gematologiya va onkologiya sohalarida hamkorlik to'g'risida memorandum imzoladi.

2023 yil sentabr oyida O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi delegatsiyasi Parij shahrida bo'lib o'tgan forumda ishtirok etib, uning doirasida tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazdi va yakunlari bo'yicha tegishli shartnomalar imzoladi.

Fransiya ham o'zbek sportining an'anaviy turi – milliy kurashga qiziqish juda yuqori. Xususan, 2022-2023 yillarda Parij shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun kurash bo'yicha ikkita xalqaro turnir o'tkazildi.

Bugungi kunda O'zbekiston – Fransiya munosabatlari jadal rivojlanib, siyosat va iqtisodiyotdan tortib, fan, madaniyati va ta'limga bo'lgan keng ko'lami sohalarni qamrab olgan. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlik tarixidagi muhim voqea bo'lib, ilgari suriladigan yangi tashabbus va imzolangan kelishuvlar o'zaro sheriklikni yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

"Dunyo" AA.



SAVDO-IQTISODIY VA INVESTITSIYAVIY HAMKORLIK KENGAYMOQDA

Bugungi kunda O'zbekiston – Fransiya o'rtasidagi o'zaro manfaatdorlik hamda hurmatga asoslangan do'stona munosabatlar jadal rivojlanib bormoqda.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tahlillariga ko'ra, so'nggi 8 yil ichida ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamda investitsiyaviy hamkorlikning rivojlanish dinamikasi o'sishda davom etyapti.

Jumladan:

- 2017 – 2024 yillarda mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 4,4 barobar, 257,2 mln. dollardan (2017 y.) 1,13 mlrd. dollarga oshdi;
o'tgan yili eksport 795,1 mln. dollarni, import esa 336 mln. dollarni tashkil etdi;
shu bilan birga, 2017 – 2024 yillarda Fransiyadan O'zbekistonga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va kreditlarining umumiy hajmi 654 mln. AQSh dollariga yetdi;
ayni paytda mamlakatimizda Fransiya investitsiyasi ishtirokida 50 ta korxonada faoliyat yuritmoqda.

Fakt va raqamlar

Ikki davlat savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirishdan o'zaro manfaatdor. O'zbekistonda yaratilgan qulay ishbiarmonlik muhiti va sarmoyaviy imkoniyatlar fransuz biznesi vakillarini tobora qiziqitmoqda. O'z navbatida, O'zbekiston Fransiya texnologiyalarini jalb etish, sanoat va ishlab chiqarish sohalarida ilg'or tajribalardan foydalanish, o'zaro sayyohlik almashuvini kengaytirishdan manfaatdor. O'zbekiston Yevropa Ittifoqining "GSP+" imtiyozli tizimining benefitsiari maqomini olgan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. 2024 yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi avvalgi yildagiga nisbatan 14 foizga oshib, qariyb 1,2 mlrd. dollarga yetdi. Bugungi kunda mamlakatimizda fransuz sheriklar ishtirokidagi 50 ta korxonada, jumladan, 23 tasi 100 foiz fransuz kapitali bilan faoliyat yuritmoqda.

"Total Eren", "Veolia", "EDF", "Orano", "Lactalis", "Carrefour" va "Shiever" kabi jahon miqyosidagi kompaniyalar O'zbekistonda energetika, geologiya-qidiruv, oziq-ovqat sanoati va chakana savdo sohalarida faol ishlayapti. Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA) O'zbekistonda shahar infratuzilmasi, "yashil" iqtisodiyot, sanitariya, gidroenergetika va qishloq xo'jaligini rivojlantirish loyihalarida ishtirok etadi. 2022 yilning noyabr oyida FTA bilan 2023 – 2025 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi imzolangan bo'lib, u 1 mlrd. yevrolik loyihalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

2023 yilning noyabr oyida Samarqandda va 2024 yil may oyida Parijda fransuz

2024 yil 4 iyun kuni Parij shahrida 10-majlisi bo'lib o'tgan Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya ishbiarmonlik aloqalarini mustahkamlash va kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu platformadagi muloqot hamkorlikning yangi o'zaro manfaatli yo'nalishlarini aniqlash, qo'shma loyihalarni amalga oshirish istiqbolini muhokama qilish imkonini beradi.

O'zbekiston va Fransiya madaniy-gumanitar hamkorlikni mustahkamlashga, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga, ta'lim, fan va sog'liqni saqlash sohalarida sheriklik qilishga intilmoqda, bu esa har ikki madaniyatni boyitish va xalqlar o'rtasidagi do'stona aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilayotir.

2022 yil noyabr oyida mashhur Luvr muzeyida O'zbekistonning boy madaniy merosiga bag'ishlangan "O'zbekiston vohalari xazinalari. Karvon yo'llari chorrahasida" ko'rgazmasining ochilishi madaniyat sohasidagi o'zbek – fransuz hamkorligi tarixidagi yorqin voqea bo'ldi.

2018 – 2023 yillarda ta'lim sohasida turizm, arxeologiya, dizayn va moda, fransuz filologiyasi, aviatsiya, inklyuziv ta'lim, biznesni boshqarish, energetika, siyosatshunoslik, aviatsiya va boshqa yo'nalishlarda 50 dan ortiq shartnoma va memorandumlar imzolangan. 2019 yilda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida Parij xalqaro moda akademiyasining qo'shma fakulteti, Akademiya davlat universitetida turizm va mehmondorlikni boshqarish bo'yicha "Vatel" biznes maktabining filiali ochildi. Toshkent davlat transport universitetida "3D" modellash bo'yicha O'zbekiston – Fransiya innovatsion

O'zbekiston va Fransiya BMT, YXHT kabi xalqaro tuzilma hamda tashkilotlar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Har ikki tomon global va mintaqaviy darajada xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shish istagini yana bir bor tasdiqlaydi. Fransiya O'zbekistonning Markaziy Osiyoda ishonchni mustahkamlash, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish, shuningdek, Yevropa Ittifoqi bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi yangi bitimni tezroq imzolash borasidagi sa'y-harakatlarini yanada qo'llab-quvvatlashga tayyor.

141,3 mingdan ortiq o'quvchilar, shuningdek, 11 ta oliy o'quv yurtida 15 ming talaba fransuz tilini o'rganmoqda.

2018 – 2023 yillarda ta'lim sohasida turizm, arxeologiya, dizayn va moda, fransuz filologiyasi, aviatsiya, inklyuziv ta'lim, biznesni boshqarish, energetika, siyosatshunoslik, aviatsiya va boshqa yo'nalishlarda 50 dan ortiq shartnoma va memorandumlar imzolangan.

2019 yilda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida Parij xalqaro moda akademiyasining qo'shma fakulteti, Akademiya davlat universitetida turizm va mehmondorlikni boshqarish bo'yicha "Vatel" biznes maktabining filiali ochildi. Toshkent davlat transport universitetida "3D" modellash bo'yicha O'zbekiston – Fransiya innovatsion

universiteti huzuridagi Milliy Sharq tillari va sivilizatsiyalar institutida o'zbek tili kurslari ochildi va u Fransiya o'zbek madaniyatini targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, keyingi yillarda Toshkent va Parijda ta'lim forumlari o'tkazildi. O'zbekistonga Fransiyaning Gavr-Normandiya universiteti, Parij-Saklay universiteti va "Parij Pantheon-Assas" universiteti delegatsiyalari keldi.

Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish doirasida Samarqand va Lion, Buxoro va Ruy-Malmeyon shaharlari, Jizzax viloyatining Zomin tumani va Flyor shahri o'rtasida birodarlik aloqalari o'rnatildi.

Fransiya tibbiyot akademiyasida Abu Ali ibn Sino byusti o'rnatilgan. Shuningdek, Ruy-Malmeyon, Tuluza, Grets-Armenvil shaharlarida ikki davlat xalqlari

DAVLATLAR TAQDIRI VA YUKSALISHINI BELGILOVCHI ASOSIY KUCH

Samarali xalqaro hamkorlik – bu dunyoda barqaror, ishonchli va farovon taraqqiyotning muhim omilidir. Aynan shunday yondashuv zamonamizning dolzarb muammolarini bahamjihat hal etish, yangi xavf-xatar va ijtimoiy larzalardan himoyalash uchun eng aniq, maqbul va natijador yo'l hisoblanadi. Shu ma'noda, bugungi kunda O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar tobora kengayib, ikki mamlakat o'rtasida sheriklikning yangi ufoqlari ochilmoqda. Savdo-iqtisodiy, ta'lim, fan va sanoat sohalaridagi hamkorlik tobora mustahkamlanib bormoqda.

Nuqtai nazar

O'tgan yillar davomida imzolangan ko'plab shartnoma va kelishuvlar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan, mashinasozlik, energetika, kimyo, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va turizm yo'nalishlarida ikki tomonlama munosabatning mustahkam asosini yaratib kelmoqda. Savdo-iqtisodiy, innovatsiya, ta'lim, fan va madaniy-gumanitar sohalarda erishilgan kelishuvlar O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan aloqalarini kengaytirish yo'lida dadil odimlayotganidan dalolatdir.

Bu borada har ikki mamlakat uchun hamkorlikning muhim yo'nalishi bo'lgan ilm-fan, ta'lim sohasidagi sheriklik jadal rivojlanayotgani e'tiborga molik. Zero, zamonaviy dunyoda ularning roli tobora ortib bormoqda. Bu boradagi hamkorlik esa mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shadi. Xususan, kuni kecha Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tgan "Ilm-fan va ta'lim: O'zbekiston – Fransiya ko'prigi" mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham mamlakatlarimiz o'rtasida mazkur yo'nalishdagi rishtalarning yangi bosqichini boshlab berishi bilan e'tiborga molik.

Konferensiyada Fransiya va O'zbekistonning 30 dan ortiq oliy ta'lim muassasalarining rahbarlari ishtirok etdi. Tadbirning asosiy maqsadi ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro aloqalarini rivojlantirish, ayniqsa, ilmiy-texnik va ta'lim sohalarida hamkorlikni mustahkamlashdir. Mazkur anjuman doirasida ikki davlat

oliy ta'lim muassasalari sherikligining hozirgi holati va istiqbolli yo'nalishlari xususida fikrlashildi, bir qator manfaatli shartnomalar, bitim va kelishuvlar imzolandi. Jumladan, Farg'ona davlat universiteti va Puatye universiteti o'rtasida anglashuv memorandumini imzolandi. Endilikda bu kelishuv doirasida professor-o'qituvchilar va talabalar almashuvini, malaka oshirish, qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy tadqiqot hamkorligi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, Farg'ona davlat universiteti va Fransiyaning "ISC" biznes maktabi o'rtasida imzolangan ta'lim va tadqiqot sohalarida hamkorlik memorandumini – akademik mobillik, qo'shma tadqiqotlar, ilmiy konferensiyalar va seminarlar tashkil etish, har ikki tarafning samarali aloqalari uchun mustahkam zamin yaratadi.

Anjuman doirasidagi "O'zbek – Fransuz universiteti" mavzuidagi sessiyalarda ta'lim muassasalari rahbarlari va xalqaro ekspertlar o'rtasida muloqot uchun muhim maydon yaratildi. Unda yangi O'zbekistonning yoshlar bilan ishlash bo'yicha milliy tajribasini dunyoning eng rivojlangan mamlakati vakillariga ulashish bizga o'zgaracha faxr va g'urr bag'ishladi. Aynon, XXI asrga kelib, dunyoda inson kapitali masalasi kun tartibiga chiqdi va mustahkam o'rin egalladi. Mamlakatlar reytingini belgilashda asosiy talablardan biri ham inson kapitalidir. Uni rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – yangi O'zbekistonning o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda "insonga



e'tibor", "inson qadri uchun" tamoyillari asosida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash va vatanparvar etib tarbiyalash bo'yicha shiddatli islohotlar amalga oshirilib, o'ziga xos milliy tajriba yaratildi. Mamlakat taraqqiyotining yangi davrida yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning bilim olishi, mehnat qilishi, o'z qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun barcha sharoitni yaratish davlat siyosatiga ko'tarildi. O'tgan davr mobaynida yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, ular hayotiga bevosita taalluqli bo'lgan qonun, Farmon va qarorlar imzolangan mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunararni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslarni tarbiyalashga huquqiy zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Takror bo'lsa-da, shu haqda muxtasar to'xtalib o'tsak. Avvalo, aholisining 60 foizini 30 yoshgacha bo'lgan avlod tashkil etayotgan O'zbekistonda yangicha yondashuvlar asosida yoshlar bilan ishlashning huquqiy asosi ishlab chiqildi. Jumladan, 2016 yil 16 sentabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 2023 yilda imzolangan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga davlat yoshlarining huquqlari himoya qilinishini ta'minlashga oid modda kiritildi.

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha institutsional tizim shakllantirildi. 2017 yil 30 iyun kuni O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil

etildi va ushbu kun "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi.

Shuningdek, 2020 yilda navqiron avlod bilan ishlash bo'yicha muvofiqlashtiruvchi asosiy tashkilot – Yoshlar ishlari agentligi asos solindi. Yigit-qizlarni rag'batlantirish yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Barchamizga yaxshi ayonki, 2017 yildan O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqilib, shu asosda puxta o'yilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017 – 2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi, 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyalarda yoshlarga oid davlat siyosati bo'yicha islohotlar belgilandi.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'un holda ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida 2030 yilgacha maktab bitiruvchilarini kamida 2 ta xorijiy tlt va 1 ta kasb egallashini ta'minlash, ularni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, ishsizlik darajasini 14 foizdan 11 foizga kamaytirish, IT sohasida 300 ming nafar yoshni ish bilan ta'minlash, ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish orqali yoshlar qamrovini 8 milliondan oshirish kabi dolzarb vazifalar belgilab qo'yildi.

Keyingi yillarda ta'lim tizimi tubdan o'zgaradi. O'tgan olti yilda maktabgacha ta'limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga yetdi.

Oliy ta'lim muassasalarida xotin-qizlarga shartnoma to'lovi davlat tomonidan qo'llab berilayotgani hisobiga ularning soni 11 karra ko'paydi. Masalan, Farg'ona davlat universitetida talabalar soni so'nggi yetti yilda 6 barobar oshib, 30 ming nafarga yetdi.

O'z sohalarida muvaffaqiyatga erishayotgan yoshlar safi tobora kengaymoqda. Birgina misol, hozirgi vaqtda dunyodagi nufuzli universitetlarda O'zbekistonning 1,5 mingdan ziyod yigit-qizlari tahsil olmoqda.

Avvalgi 25 yil ichida davlat hisobidan 800 nafar talaba xorijga o'qishga ketgan bo'lsa, birgina "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali so'nggi yetti yilda 2,3 ming nafar vatandoshimiz shunday imkoniyatga ega bo'ldi.

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha manzilli tizim yaratildi. 2020 yilda ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik va boshqa turdagi qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyogi bo'lganlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazorat qilib borish bo'yicha 20 turdagi ijtimoiy yordamni qamrab olgan "yoshlar daftari" joriy etildi. Ushbu tizim orqali 2024 yilda 180 ming nafar yigit-qizga 345 milliard so'mlik yordam ko'rsatildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan ishlash bo'yicha tashabbuslari xalqaro miqyosda ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Ana shunday tashabbuslar asosida 2023 yil 14 sentabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yoshlarga oid siyosatining umumiy yo'nalishlari to'g'risidagi bitim tuzildi.

2023 yil 19 sentabrda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida Prezidentimiz tomonidan bu sohada BMT va uning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o'rnatish maqsadida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etish va uning doirasida "Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi – 2030" dasturini ishlab chiqish taklif etildi.

Mana, besh yildirki yurtimizda yigit-qizlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga olgan "besh muhim tashabbus" amalga oshirilyapti. Natijada yoshlar bandligini ta'minlash va ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha yangicha mexanizm joriy etildi.

Yoshlarni jismonan sog'lom etib tarbiyalash va ommaviy sportga keng jalb qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri. Ayniqsa, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha uyushtirilayotgan besh bosqichli "Besh tashabbus olimpiadasi" xalqaro miqyosda erishilayotgan yutuqlarda o'z aksini topmoqda. Masalan, "Parij – 2024" yozgi Olimpiadasida O'zbekiston sport delegatsiyasi tarixiy natija ko'rsatib, 206 mamlakat orasida 13-o'rinni egalladi. Jumladan, Farg'ona davlat universiteti bitiruvchisi Yorqinbek Odilov sportning narva uloqtirish turi bo'yicha "Parij – 2024" Paralimpiada o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritdi.

Yoshlar siyosati sohasidagi navbatdagi dolzarb vazifalardan biri – yosh avlodda milliy ruhiyatni shakllantirish, g'oyaviy xurujlar va zararli axborotlardan asrash. Bu yo'nalishda davlatimiz rahbari yigit-qizlar bilan muloqot qilib, ular oldida turgan har bir masala va ularning yechimiga oid taklif hamda tashabbuslarni bildirish tajribasi an'anaga aylandi.

Demakki, yangi O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangicha mexanizmlar joriy etilib, milliy tajriba yaratildi. Natijada O'zbekiston BMTning "Yoshlar – 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoridan joy oldi. Yangi O'zbekistonning yoshlar bilan ishlash bo'yicha yaratgan yangi mexanizmi dunyo bo'ylab o'z e'tirofini topmoqda, ta'limga e'tibor esa mamlakat istiqboliga daxldor masala hisoblanadi. Ilmga chanqoq, intiluvchan yoshlarning iqtidorini vaqtida anglab, g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, ularga ko'mak berish esa bizning asosiy vazifamizdir.

Bahodirjon Shermuhammadov, Farg'ona davlat universiteti rektori, professor.

Ijtimoiy himoya milliy agentligida ko'zi ojiz yoshlar uchun zamonaviy quрилmalarni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

## UCH OY SARHISOB

Shu bilan birga, "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi muhokama qililib, dastur loyihasi bo'yicha takliflar

tayyorlandi va tegishli tartibda taqdim etildi. Jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish hamda murojaatlarni ko'rib chiqish samaradorligini oshirish ham doimiy diqqat-markazimizda. Xususan, Senatning fuqarolar

qabulxonasida fuqarolarni qabul qilish jadvaliga asosan ish tashkil qilinib, aholi tomonidan ko'tarilgan muammolarning ijobiy hal etilishi yuzasidan mutasaddi vazirlik va idoralar mas'ullariga tegishli ko'rsatmalar berildi va o'z navbatida, ular qo'mita nazoratiga olindi.

Umuman, shu davr ichida qo'mita tomonidan 110 ga yaqin murojaatlar ko'rib chiqilib, 45 tasi ijobiy hal etildi. Shuningdek, qo'mita a'zolari tomonidan qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini aholiga atroflicha tushuntirish, davlat dasturi loyihasi to'g'risida fuqarolarni xabardor etish maqsadida OAVda 170 dan ortiq chiqishlar qilindi.

«Xalq so'zi».

## BELGILANGAN VAZIFA VA ANIQ MAQSADLAR

yangichayondashuv asosida ishlar kerakligini taqozo etadi

U bilan "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kengaytirilishi to'g'risida"gi qonunlarga fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimida institutsional yaxlitlik ta'minlanishi, davlat subdijitalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalariga ajratilgan byudjet mablag'larini boshqarishning, jumladan, adolatli taqsimlash, maqsadli foydalanilishini nazorat qilishning yangi tartibi joriy etilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shu bilan birga, davlat organlari tomonidan fuqarolik jamiyati institutlariga bevosita davlat ijtimoiy buyurtmalari berilishining yangi mexanizmlari va boshqa masalalar belgilanmoqda. Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimida institutsional yaxlitlik ta'minlanishiga, shaffoflik va samaradorlik oshirishiga, ijtimoiy sheriklik munosabatlari rivojlanishiga, shuningdek, jamoat fondlari faoliyatida ortiqcha byurokratik talablar qisqartirishga xizmat qiladi. Yig'ilishda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.



Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

## Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimiga o'tiladi

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida mahkumlarni axloqan tuzatish ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarning jazo o'tash muddatini o'zini o'zi tarbiyalash orqali tuzalish yo'lga o'tganligini tasdiqlovchi harakatlarni bajargani munosabati bilan kamaytirishni, shuningdek, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki yengilroq bilan almashirish masalasini hal etish vaqtida hisobga olinishini nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirish kiritilmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratib, uni ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan berilgan aksariyat takliflar inobatga olingani va hujjat matnida aks etganini alohida aytishdi.

Yig'ilishda mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham atroflicha ko'rib chiqildi.

Mazkur hujjatda mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatini yanada takomillashtirish, mavjud huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish, sohaga rivojlangan davlatlarning tajribasini joriy qilishga oid huquqiy normalar aks etmoqda.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat nafaqat litsenziya, balki boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar va xabardor qilish tartibida faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkinligi, shuningdek, jamiyatlarining filial va vakolatxonalarini ochish tartiblari belgilanmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi jamiyat ishtirokchilari huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlashi yanada mustahkamlash, jamiyat faoliyatida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etishga xizmat qiladi.

faoliyatini amalga oshirish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi. U homiylik faoliyati subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy qilish, homiylik tashkilotlari faoliyati ochiqqligini va fuqarolarning ularga nisbatan ishonchini kuchaytirish hamda homiylik faoliyatini amalga oshirish uchun pul mablag'larini yig'ishni qonuniy tartibga solishni nazarda tutadi.

Loyihada homiylikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha mexanizmlari, homiylik xayriyalarini yig'ish, xayriya qutisini o'rnatish va undan foydalanish tartiblari, shuningdek, homiylik xayriyalarini to'g'risidagi axborotni oshkor etish va bu jarayonning ochiqqligini ta'minlash shartlari belgilanmoqda.

Muhokama jarayonida fraksiya a'zosi Iba Narizova yurtimizda jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik bilan shug'ullanishi kengayayotgani, lekin homiylik xayriyalarini yig'ish tartibi, mezonlari qonunchilikda aniq belgilanmaganini sababli ayrim shaxslar ishonchga kirib, manfaatdorlik payida bo'layotganini ta'kidladi. Bunday muammoli holatlarning oldini olib bo'yicha qonun loyihasida qanday ta'sir choralarini nazarda tutilayotgani bilan qiziqdi.

Qonun tashabbuskorlari loyihada homiylik xayriyalarini yig'ish tartibini buzilishning oldini olish, homiylik tashkilotlari faoliyatining shaffofligini oshirishga xizmat qiladigan me'yorlar belgilanayotganini ma'lum qildi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

## Kitob o'qigan mahkumning jazo muddati qisqartiriladi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahkumlarni axloqan tuzatish ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi. Yig'ilishda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita tomonidan deputatlar bergan takliflar asosida undagi normalar takomillashtirilgani qayd etildi.

Qonun loyihasi bilan Jinoyat kodeksining 73-moddasi to'rtinchi qismida ko'rsatilgan shaxs (bundan umrbd ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilganlar mustasno) sud hukmi bilan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash davrida o'zini o'zi tarbiyalash orqali tuzalish yo'lga o'tganda, ya'ni belgilangan tartibda kitoblarni o'qib, imtihan topshirgan taqdirda, unga nisbatan tayinlangan jazoning o'tash muddati bir yilda o'titiz kungacha qisqartirilishi mumkin. Bunda har bir o'qigan kitob uchun jazoning o'tash muddati uch kunga qisqartirilishi belgilanmoqda.

Yig'ilishda deputatlar tomonidan qonun loyihasining qabul qilinishi mahkumlarni axloqan tuzatish, ularda jamiyat turmushi qoidalari va an'analariga hurmat munosabatini shakllantirish borasidagi ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlandi. Va qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi. Qayd etilganidek, u bilan davlat organlarining mansabdori shaxslari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmoqda.

Fraksiya a'zosi Botirali Shodiyevning ta'kidlashicha, qonun loyihasi nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qizg'in muhokamadan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

«Xalq so'zi».



## Mushohada

## SHAFFOFLIK VA NAZORAT — MUHIM OMIL

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda Prezidentimiz islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirganini ta'kidlab, korrupsiyadan xoli muhit yaratish yo'lidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish zarurligini qayd etdi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar jiddiy baholandi va tartimga kamchiliklar tahlil qilinib, ularni bizzarraf etish bo'yicha aniq takliflar ilgari surildi.

Majlis davomida korrupsiyaning asosiy o'choqlari, ayniqsa, mahalliy darajadagi muammolar ko'tarilib, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat organlari faoliyatini yanada shaffoflashtirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish masalalariga alohida urg'u berildi.

Darhaqiqat, korrupsiyaning keng tarqalishi mamlakat iqtisodiyotiga jiddiy zarba beradi. Investorlar ishonchsiz muhit sababli yangi loyihalarni amalga oshirishdan qochishadi, tadbirkorlar esa noqonuniy to'lovlarga majbur bo'ladi. Bu esa iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi va ish o'rinlari kamayishiga olib keladi.

Yig'ilishda korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlandi. Avvalo, davlat idoralari faoliyati shaffof bo'lishi, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, OAVning faolligini oshirish zarur.

Korrupsiyaga qarshi ta'limning dolzarbligi yosh avlodning ushbu illatga nisbatan fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zarurati bilan bog'liq. Shu bois ham yosh avlodga halollik va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini bolalikdan singdirish ham muhimdir.

Jamiyatda nuroniyalar katta hayotiy tajribaga ega shaxslar sifatida korrupsiyaga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi. Ular yoshlarga halollik va adolat tamoyillarini singdirishda faol ishtirok etishlari lozim. Nuroniyalar o'z so'zlarini va amaliy ishlari orqali halollikni targ'ib qilishi mazkur illatga qarshi kurash madaniyatini shakllantirishda zaruriy omil bo'lishi muqarrar.

Umuman, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash amaliy ishlar bosqichiga chiqdi va jarayon uzluksiz davom etadi.

Erkin OMONOV, xalq deputatlari Toshkent shahar Yunusobod tumani Kengashi deputati.

## Fikr

Umuman, bugungi kunda bu masala butun dunyoda dolzarb mavzuga aylangan va aksariyat mamlakatlari ekologiya muammosining zararli oqibatlari va halokatli etkasi borasida tashvishlarini bildirmoqda.

Mamlakatimizda ham atrof-muhitni musaffo saqlash, tabiat resurslarini asrash masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari parlament palatalari yig'ilishidagi nutqida "Atmosfera havosiga zararli gazlarning tashlanishi, hayot uchun eng zarur bo'lgan suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'lanlash, qazilma yoqilg'ulardan samarasiz foydalanish birinchi navbatda global iqlim o'zgarishiga, tabiiy ofatlarning tez-tez sodir bo'lishiga olib kelishi va bu esa o'z navbatida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, aholi sog'lig'iga zarar yetkazmoqda", deya alohida ta'kidlagan edi.

Bu tabiiylik, yirik korxonalarda ekologik ishlab chiqishga o'tishni qo'llab-quvvatlash tizimini joriy qilish bo'yicha qonunlar yaratish zaruriyatini kun tartibiga chiqarmoqda.

Boz ustiga, so'nggi yillardagi globalashuv jarayonlarining keskin jadalashuvi atrof-muhit holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa davlat ekologik ekspertizasi siyosatini xalqaro me'yorlar asosida olib borishni va tabiiy resurslar bilan bog'liq sanoat korxonalariga yangicha ekologik talablar qo'yishni taqozo etmoqda.

Yaqinda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza, atrof-

muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi Qonuni, avvalo, strategik hujjatlar loyihalarida belgilangan tadbirlarning atrof-muhitga ta'sirini oldindan aniqlash, baholash, tahlil qilish va choralar ko'rish imkonini yaratadi.

Qonun bilan davlat ekologik ekspertizasi instituti qatnashchilari, ya'ni buyurtmachi va ekspertlarning huquq va majburiyatlari, loyihachining javobgarligi aniq belgilab qo'yilmoqda. Mazkur normalar sohaning samaradorligi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, qonun mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan vazifalarni to'liq amalga oshirish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro majburiyatlarini to'laqonli bajarish hamda "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarga to'liq erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunning yana bir muhim jihati — obyektning atrof-muhitga ta'siri bo'yicha toifalarni xalqaro talablar asosida optimallashtirishdir. Ushbu mexanizm bilan minglab kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi byurokratik to'siqlarga barham beriladi. Bu orqali tadbirkorlarning ortiqcha vaqt va moliyaviy xarajatlari qisqartirilishiga erishiladi.

Mazkur sohada xalqaro talablar va demokratik tamoyillarni joriy etish hisobiga xorijiy investor hamda mahalliy tadbirkorlar uchun ekologik ekspertiza institutining ishonchli va ochiqqligini, shaffofligini ta'minlashga zamin yaratiladi.

Anvar TO'YCHIYEV, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi.

2050 yilga borib mamlakat umumiy energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 50 foizga yetkazish kutilayotir.

Yurtimizning bu boradagi imkoniyatlari juda katta. Chunki zaminimizda bir yilda quyoshli davr 300 kundan ortiqni tashkil etsa, shamol esuvchi hududlar, mikroGESlar qurish uchun qulay tog' daryolari mavjudligi bu boradagi imkoniyatlarni yanada oshiradi. Shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi elektr manbalari yaratish, ya'ni "yashil" energetika sohasini rivojlantirish yo'nalishida dadil qadamlar tashlanmoqda. Ekspertlarning baholashicha, mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalariidan foydalanish imkoniyatlari 51 mlrd. tonna neft ekvivalentiga teng. Bugungi kundagi mavjud texnologiyalar 180 mln. tonna neft ekvivalentiga teng energiya olish imkoniyatini beradi. Bu — respublikamizda qazib olinayotgan yoqilg'ij hajmidan 3 barobarga ko'p, demak. Bu esa atmosferaga 447 mln. tonna karbonat angidrid, turli sulfatli birikmalar, azot oksidlari va boshqa ifloslantiruvchi moddalar tashlanishining oldi olinishini bildiradi.

Prezidentimiz 2024 yil 13 dekabr kuni bo'lib o'tgan energetika sohasida yangi quvvatlarini ishga tushirish va navbatdagi loyihalar qurilishiga start berish marosimida keyingi sakkiz yilda O'zbekiston "yashil" energetika ishlab chiqarish va undan foydalanishda

## MUQOBIL ENERGETIKA OLAMSHUMUL MASALA

Dunyoning rivojlangan davlatlarida qayta tiklanuvchi elektr manbalari rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2024 yilda Xitoy qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatish bo'yicha 2023 yilgi rekordini yangiladi. Mamlakat umumiy energetik balansiga taxminan 277 GvT quyosh energiyasi va qariyb 80 GvT shamol energiyasi qo'shildi. Joriy yilda yana 273 GvT quyosh va 94 GvT shamol energiyasi quvvatlari qo'shilishi kutilmoqda.

Xalqaro energetika agentligining o'tgan yil kuzida e'lon qilingan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari 2024" nomli hisobotida 2024 yildan 2030 yilgacha bo'lgan davrda dunyoda 5500 GvTdan ortiq qayta tiklanuvchi energiya yangi quvvatlarini ishga tushirish rejalashtirilgani qayd etilgan. Bu — 2017 yildan 2023 yilgacha bo'lgan davrda kuzatilgan o'sishdan deyarli uch baravar ko'p demak.

Darhaqiqat, uglevdorod xomashyosi zaxiralari yildan-yilga kamayib borayotgan bir paytda qayta tiklanuvchi energiya manbalariidan foydalanishni kengaytirish dolzarb hisoblanadi. Bu yo'nalishda 170 dan ortiq davlatlar maxsus qonunlar yoki sohaga oid milliy strategiyalarni qabul qilgani va energetika tizimida qayta tiklanuvchi energetika salmog'ini keskin oshirish rejalashtirilgani bejiz emas. Chunki samaradorligi past hamda xarajatlari yuqori bo'lgan, atrof-muhitga

salbiy ta'sir ko'rsatib, ko'p resurs talab etadigan, an'anaviy yo'l bilan olinadigan elektr energiyasidan "yashil" energetikaga o'tish har bir davlatning taraqqiyoti barqarorligini ta'minlaydi, desak, mulbog'ga emas.

Albatta, har bir mamlakat geografik joylashuviga ko'ra, muqobil energiyani y u yoki bu turiga alohida e'tibor qaratadi. Ana shulardan biri — quyosh energiyasidan foydalanish ham tobora ommalashib bormoqda. Xususan, "quyoshli uy"lar qurish loyihalariga katta miqdorda sarmoya kiritilmoqda. Quyoshdan issiqlik va yorug'lik olish hisobiga bunday uylarda boshqa turdagi energiya manbalariining 50 — 90 foiz tejalishtirilishi erishilmoqda. Bunday uylarni qurish nafaqat Misr, Isroil, Turkiya, Yaponiya, Hindiston, AQSh kabi iqlimi nisbatan issiq o'lkalarda, balki Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi o'rta iqlimli davlatlar va Shvetsiya, Finlandiya, Kanada, AQShning Alyaska shtati kabi shimoliy hududlarda ham rasm bo'lmoqda.

Hisob-kitoblarga qaraganda, agar yerdagi cho'llarning bor-yo'g'i 4 foiz quyosh panellari bilan qoplasa, hosil bo'ladigan energiya butun insoniyatning ehtiyojini qondirishga yetadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari uskunalaridan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatmoqdadiki, ularni xarid qilish va dastlabki foydalanish davrida xarajatlarning yuqoriligiga qaramasdan, o'zini oqlaydi. Masalan, Germaniyada

ko'zga ko'rinarli yutuqlarga erishganini alohida ta'kidladi. Bu sohada bugunga kelib 3,5 ming megavatt yoki 10 mlrd. kVt-soatga teng 16 ta yirik quyosh va shamol elektr quvvatlari ishga tushirilgan, shuning hisobiga 2024 yilda "yashil" energiya ulushi 16 foizga oshgan. Mamlakatimizda 2030 yilga qadar yana 19 ming megavatt "yashil quvvat"larni barpo etib, qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Joriy yilga "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili", deb nom berilgani ham O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida qayta tiklanuvchi energetika manbalariidan samarali foydalanish va uning ko'laminani yanada kengaytirishni anglatadi. 2025 yilda 3,4 ming megavatt 18 ta quyosh va shamol stansiyalari hamda 1,8 ming megavatt saqlash tizimlari ishga tushiriladi. Buning natijasida "yashil" energiya ishlab chiqarish hajmlari 12 mlrd. kVt-soatga yetadi. Bu esa 5 mln. xonadonning bir yillik iste'moliga teng va 6,5 mln. tonna zararli gazlarni atmosferaga chiqarishning oldi olinadi, degani.

Umuman aytganda, qayta tiklanuvchi energiya manbalari sanoat korxonalarini, ishlab chiqarish majmualarini hamda aholini barqaror energiya bilan ta'minlashga, yurtdoshlarimiz hayoti farovonligini yuk saltirishga xizmat qiladi.

Baxtiyor PO'LATOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, texnika fanlari doktori.

# IJTIMOYIY HIMOYANING YANGI TIZIMI – INSON QADRI UCHUN

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilish butkul qayta ko'rib chiqilib, odamlarga kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi joriy etildi. 2023 yil 1 iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoniga binoan ijtimoiy himoya milliy agentligi, shuningdek, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar)larda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari ochildi. Qator vazirliklarda bir-biridan tarqoq holda bo'lgan ijtimoiy xizmat va yordamlar yaxlit tizimga birlashtirildi.

## Tahlil

### Har bir shaxs taqdiriga alohida yondashuv

Agentlik tashkil qilinishiga qadar soha mutaxassis-ekspertlari hamkorligida o'z faoliyatida yagona ijtimoiy tizimni yo'lga qo'ygan o'ndan ortiq davlatlar tajribasi chuqur o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, yurtimizda bu soha 30 yil oldingi tizim darajasida qolib ketgan, faqat davlat ajratgan pulni tarqatish bilan shug'ullangan, boshqa ish qilmagan. Bu ayrim odamlarni o'zini o'nglab qilishga emas, boqimandalikka o'rgatib qo'ygan. Aslida bu tizimning vazifasi aholini og'ir ahvoldan chiqarish va jamiyatda o'z o'rnini egallashi uchun ko'mak berishdan iborat bo'lishi kerak.

Bugungi kunda ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan xorij tajribasi o'rganilgan holda mamlakatimizning barcha hududida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va ijtimoiy xodimlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini baholash orqali ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni muvofiqlashtiruvchi elektron modul (e-case) ishga tushirildi.

Elektron modul yordamida ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ijtimoiy ish (keys) ochish, ularning ehtiyojlarini birlamchi va kompleks baholash orqali individual rejalar asosida ijtimoiy xizmat va yordamlar ro'yxati shakllantirildi.

Amaldagi nogironlikni belgilashning tibbiy modelida fuqaroning sog'lig'ini yo'qotganligi darajasiga qarab nogironlik belgilanadi. Ijtimoiy modelda esa fuqaroning sog'lig'ini yo'qotganligi bilan bir qatorda jamiyatda bino-inshootlar, yo'l infratuzilmalari, jamoat transportlari, ta'lim olish, mehnat qilish singari yo'nalishlarda teng ravishda foydalanish uchun to'siqsiz muhit yaratilgan inobatga olinadi.

Ijtimoiy modelning asosiy maqsadi shaxsning sog'lig'ini tiklash bilan birga, jamiyat faoliyatida boshqalar singari to'siqsiz ishtirok etishi uchun sharoit yaratishdir. Jamiyat nogironligi bo'lgan shaxslarning imkoniyatlariga qanchalik moslashtirilgan bo'lsa, nogironlik darajasi ham shuncha kamayadi.

kishilarga yordam ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni jamiyatga integratsiyalash uchun agentlik tomonidan 40 dan ziyod turdagi ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Murojaat bilan chiqqan nogironligi bo'lgan shaxslarga protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash uchun sertifikat rasmiylashtirildi. Bundan tashqari, agentlik xodimlari mehnatga layoqatli nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash bilan birga ularni kasbga tayyorlashga ham yo'naltirildi.

Ammo aytish joizki, ayni paytda ijtimoiy himoya tizimi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamidan ko'pchilik xabardor emas. Nogironligi bor farzandini parvarishlash nafaqasini olishi mumkin bo'lgan ko'pchilik ota-onalar ushbu imtiyozdan foydalanmayapti. Shuning uchun bu borada targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim.

### «Hayot maktabi» – kelajak sari yana bir qadam

Endilikda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari "hayot maktabi" sifatida tarbiyasi og'ir bolalarning muammolari bilan ishlayapti, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish bo'yicha kompleks ishlar olib boryapti. Hukimliklar huzuridagi Vasiylik va homiylik komissiyalari tugatilib, ularning vakolati "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga o'tkazildi. Vasiylik, homiylik, patronatga olingan hamda oilaviy bolalar uylaridagi o'g'il-qizlar bilan mahalladagi ijtimoiy xodimlar shug'ullanmoqda. Ular ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning bola oldidagi majburiyatini qay darajada bajarayotganini monitoring qilib, baholab boradi.

Bugungi kunda quyidagilarni e'tiborsizligi oqibatida joylarda qarovsiz qolib borgan bolalar aniqlanib, ro'yxatga olinmoqda. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni e'tibordan chetda qoldirmaslik choralarini ko'rilmoqda. Ota-onasi migratsiyada bo'lgan, noqulay ijtimoiy muhitdagi oilalarda tarbiyalanayotgan, ruhiy-jismoniy rivojlanishida kamchiliklari bor bolalarga yordam tizimi takomillashtirilmoqda. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tekshiruvidan o'tkazilib, ta'limga jalb qilinayotir. Eksperiment tariqasida vasiylikka, homiylikka, oilaga tarbiyaga (patronat) hamda oilaviy bolalar uyiga berilgan o'g'il-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini monitoringdan o'tkazish tizimi joriy etildi. Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, ta'limga jalb qilinmagan bolalar orasidan alohida ta'limga ehtiyoji borlar aniqlanib, ro'yxatga olinmoqda.

Yetim va ota-ona qaramog'ida bo'lmagan yoshlar tadbirkorlik va kasb-hunarga

o'qitilmoqda, ularga dehqonchilik uchun yer berilmoqda. Oliyog'ni tamomlagan, ota-ona mehridan mahrum bo'lgan yoshlarni davlat tashkilotlariga ishga joylashtirish bo'yicha tizim yaratildi. Yoshlarga hamrohlik dasturi asosida bunday yoshlar 23 yoshgacha qo'llab-quvvatlanmoqda.

### Imkoniyati cheklanganlarga cheksiz imkoniyat

O'zbekiston 2021 yilda Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilgan va belgilangan majburiyatlarni bajarish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirmoqda, – deydi ijtimoiy himoya milliy agentligining jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi boshlig'i Dulfuzabegim Ro'zmetova. – Shundan kelib chiqqan holda imkoniyati cheklangan bolalar qatnashadigan maktab va bog'chalarni inklyuziv ta'limga moslashtirish dasturi amalga oshirilmog'ida. Nogironligi bo'lganlar orasida sportni rivojlantirishga alohida urg'u berilmog'ida.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitish, ishga joylash bo'yicha to'siqsiz muhit yaratish uchun ularning "mehnatga layoqatini belgilash" amaliyotidan voz kechildi. Endilikda ishlash va kasb-hunarga o'qitishda nogironlik kasallikka emas, balki shaxsning mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilanmoqda. Hozir korxon, tashkilot va muassasalarda faoliyat ko'rsatayotgan, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi ishtiroki ko'rsatkichi yildan-yilga oshmoqda. Joriy yilning oxiriga qacha yana 20 ming nafar ana shunday shaxs ish bilan ta'minlanadi.

Jamiyatimizda ijtimoiy xizmat va yordamlarning manzilli tashkil etilishi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash tartibi va ular bilan ishlash tizimini tubdan ijobiy tomonga o'zgartirdi. Chunki bu tizim ehtiyojmand fuqarolarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga imkon yaratmoqda. Ijtimoiy himoya milliy agentligi xodimlari bugun xalq orasiga kirib borish asosida insonlarning daru hasratidan boxabar bo'layotgani, muammolariga yechim topayotganining o'zi quvonarli hol. Ehtiyojmand toifani aniqlash yuzasidan ishlab chiqilgan mezonlar va muhtojlarning har biri bo'yicha tuzilgan individual ijtimoiy xizmatlar dasturi ularning aynan qanday yordamga muhtojligini ko'rsatib bermoqda. Ular asosida olib borilayotgan ishlar yurtdoshlarimizning ortangi kunga ishonchini yanada mustahkamlab, hayotdan rozi yashashiga zamin yaratmoqda.

Nurulloh OSTONOV («Xalq so'zi»).



## xabarлари

### Hamyurtimiz xalqaro musobaqa g'olibi

Tailandning Pattayya shahrida slalomda eshkan eshish bo'yicha xalqaro musobaqada startga chiqqan O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Anvar Klevlev oltin hamda kumush medallarga sazovor bo'ldi.

Kanoechimiz dastlab "Sea Open" musobaqasida kumush, so'ngra "Thailand open" turnirida oltin medal sohibiga aylandi.

Endi hamyurtlarimiz ushbu shaharda tashkil etiladigan "U18" va "U23" yosh toifalaridagi qit'a birinchiliklarida qatnashadi.



### Yosh dzyudochilarimiz «Alibayli Cup» peshqadami

Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida o'smirlar va kichik yoshdagi o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan xalqaro turnir o'z yakuniga yetdi.

O'zbekiston dzyudo federatsiyasi xabar berishicha, an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Alibayli Cup" turnirida mezbonlardan tashqari Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Turkiya, Gruziya singari o'ngacha yuqin davlatlardan yosh dzyudochilar ishtirok etdi.

Ozarbayjon Yoshlar va sport vazirligi hamda mamlakat dzyudo federatsiyasi bilan hamkorlikda uyushtirilgan turnirda O'lmas Gulliyev murabbiyligidagi "Diplomat" dzyudo klubi tarbiyalanuvchilari ham muvaffaqiyatli qatnashib, klublar o'rtasida medallar jamg'arish bo'yicha (4 ta oltin, 1 ta kumush, 2 ta bronza) umumjamoa hisobida 1-o'rnini egallashdi.



## «AgroWorld Uzbekistan – 2025»: ILG'OR USKUNA VA TEXNOLOGIYALAR NAMOYISHI

Poytaxtimizdagi "O'zeksomarkaz" Milliy ko'rgazmalar majmuidida "AgroWorld Uzbekistan – 2025" yigirmanchi xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tmoqda.

"Itcca Exhibitions" xalqaro ko'rgazma kompaniyasi va uning hamkori "ICA Eurasia Group" tomonidan mahalliy hamkorlar ko'magida tashkil etilgan ushbu tadbirda O'zbekiston, Belgiya, Vengriya, Germaniya, Daniya, Hindiston, Ispaniya, Italiya, Qozog'iston, Xitoy, Koreya Respublikasi kabi mamlakatlardan 130 dan ortiq kompaniyalar qatnashayotir.



## Ko'rgazma

Tadbinning ochilish marosimida ta'kidlanganidek, ishtirokchilar qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish, chorva mollari hamda parrandalarni ko'paytirishdan tortib, yig'im-terim, qayta ishlash va saqlashgacha bo'lgan jarayondagi asbob-uskunalar hamda texnologiyalar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Aytish joizki, bu yilgi ko'rgazmada Yaponiyaning tashqi savdoni rivojlantirish tashkiloti (JETRO) ilk bor qatnashayotgani e'tiborga molikdir. Ushbu kompaniya agrosanoat sektori uchun innovatsion yechimlarni taklif etuvchi 13 ta

yetakchi yapon kompaniyasining imkoniyatlarini hamda manfaatlarini namoyon qiladi.

Bundan tashqari, Ispaniyaning "Agricola" korxonasi vakillari mevalarni saralash va qayta ishlash, Italiyaning "ROTA GUIDO" kompaniyasi metasaddilari esa tayyor chorvachilik fermalarini qurish uskunalarini havola qilishyapti.

An'anaga muvofiq, tadbir doirasida, ya'ni bugun Fermerlar kuni o'tkaziladi. Unda ko'rgazma ishtirokchilari fermer hamda dehqon xo'jaliklari rahbarlari, bosh mutaxassislar bilan uchrashadi.

«Xalq so'zi».

## TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFNOMA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-avgustdagi tegishli farmoyishigamuvofiq Toshkent shahar hokimligi "Yagonabuyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi buyurtmachiligida "Yangi O'zbekiston" bog'iga tutash hududda mehmonxonalar majmuasi hududini ichimlik, oqova suv tizimiga ulash hamda ichki yo'llarni qurish" (keyinchalik "Obyekt" deb yuritiladi) ishlarini amalga oshirish, bundapudratchilarni ichki tanlov orqali eng yaxshi takliflar asosida aniqlash belgilangan.

Shu sababdan, Sizni ichki tanlovda ishtirok etish hamda o'z taklifingizni taqdim etishingizni so'raymiz.

**Tanlashni o'tkazish shakli:** eng yaxshi takliflarni tanlash orqali aniqlanadi.

**Ishning batafsil tavsifi:** "Yangi O'zbekiston" bog'iga tutash hududda mehmonxonalar majmuasi hududini ichimlik, oqova suv tizimiga ulash hamda ichki yo'llarni qurish".

**Boshlang'ich narx:** 13 639 424 102 so'm (QQS bilan).

**Ishlarni tugallash muddati:** 150 kun.

**Tanlash o'tkaziladigan joyning manzili:** Toshkent sh., I. Karimov ko'chasi, 16-"A" uy, 409-xona.

Quyidagi qatnashchilarga tanlov savdolarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

– qayta tashkil etilish (bo'linish, qo'shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasidaturganlar;

– mol-mulki musodaraga olinganlar hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir-biriga moliyaviy qaramligi mavjudlar.

**Obyektni moliyalashtirish manbasi:** Toshkent shahar mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan.

**Qo'shimcha ma'lumotlarni quyidagi manzildan olishingiz mumkin:** Toshkent shahri, I. Karimov ko'chasi, 16-"A" uy, 409-xona. Telefon: 71-239-17-50.

Takliflarni topshirishning oxirgi muddati **2025-yil 17-mart soat 12.00 ga qadar.**

Taklifni manzilga chiqib o'rgangan holda berishingizni so'raymiz, bunda taklif muhrlangan konvertda bo'lishi va quyidagilarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim, jumladan: **Obyekt bo'yicha ishlarni bajarishga narx taklifi, kafolat xati, budget va budgetdan tashqari maqsadli jamg'armalar oldida soliq qarzi yo'qligi haqidagi ma'lumotnoma (Soliq qo'mitasi tomonidan QR kodli hamda tanlov o'tkazish davrida olingan bo'lishi lozim).**

**Tanlov hujjatlarini va namunalarni elektron ko'rinishda taqdim etiladi.**

REKLAMA

## Chavandozlar bordir bu elda

Poytaxtimizda konkur bo'yicha "Uzbekistan global tour" musobaqasining ikkinchi bosqich bellashuvlari bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizning turli hududlaridan tashrif buyurgan mohir chavandozlar ishtirokidagi bellashuvlar qiziqarli chiqishlarga boy bo'ldi.

Yakunda Xurshidbek Alimjonov "A" (130 sm., "Champions liga" laqabli otda), Alisher Erkinov "D" (115 sm., "Etos"), Dilshod Shokirov "B" (105 – 110 sm., "Javita"), Alisher Yo'ldoshev "E" (100 sm., "Sheffbu"), Sevinch Nazarova "C" (100 sm., "Elis Dji") va Aziza Odilova "F" (80 sm., "Safina") toifalarida g'oliblikni qo'lga kiritdi.



## Xotira turniri sovrindorlari

Toshkent viloyatida velosportning shosse yo'nalishi bo'yicha V. Iskandarov xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan musobaqa yakunlandi.

Kattalar va yoshlar o'rtasida uyushtirilgan mazkur musobaqada Surxondaryo viloyati sportchilari uchta oltin medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida birinchi bo'ldi.

Shu bilan birga, turnir davomida Jizzax viloyati jamoasi bittadan oltin va bronza, ikkita kumush medallarga ega chiqib, umumjamoa hisobida ikkinchi bo'ldi. Toshkent viloyati velosportchilari esa beshta bronza bilan kuchli uchlikdan joy oldi.

Musobaqa davomida Samarqand viloyati jamoasi ikkita bronza, poytaxt hamda Sirdaryo viloyatlari jamoalari bittadan bronza medaliga sazovor bo'ldi.

«Xalq so'zi».

## Poytaxtimizda O'qituvchilar olimpiadasining respublika bosqichi bo'lib o'tmoqda.

### Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 242, 15 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 ta bob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va ummulligiga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obxamani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terilid hamda operator M. Begmurotov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Isлом Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir R. Bobojonov. Musahhib S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.55 Topshirildi — 01.35 1 2 3 4 5 6